

**AHAMONIYLAR SALTANATI: BOSHQARUV TIZIMI VA HARBIY STRATEGIYA****Qo‘yliyeva Dilshoda Zokir qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Tarix Fakulteti Tarix yo‘nalishi 102-guruh talabasi  
(+998777137242)

[dilshodaqoyliyeva4@gmail.com](mailto:dilshodaqoyliyeva4@gmail.com)**Ilmiy rahbar: Tayronov Yoqubjon**

**Annotatsiya:** O‘tmishga, qadimgi dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimgi Sharqdagi imperiyalar, boshqa podsholik va saltanatlar o‘zining uzoq masofalarga cho‘zilganligi va aholisining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ana shunday imperiyalardan biri Ahamoniylar imperiyasidir. Ushbu maqolada Ahamoniylar imperiyasining harbiy-siyosiy qudrati qanday shakllanganligi „O‘lmaslar“ gvardiyasi va qudratli dengiz floti yordamida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati hamda ushbu murakkab mexanizmni boshqargan ma‘muriy apparatning o‘ziga xos xususiyatlarini keng qamrovli tahlil qilishni maqsad qiladi. Ahamoniylar davlatchiligi – qadimiy Sharq despotiyasi va madaniy sinkretizmning o‘zaro sintezi sifatida, bugungi kunda ham tarixiy va siyosiy nuqtayi nazardan dolzarb tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda

**Kalit so‘zlar:** Kayxusrav, Gardash, Astiag, Mag, Doro I Satrap,

**Аннотация:** Обращаясь к прошлому, к истории древнего мира, можно отметить, что империи, царства и государства Древнего Востока выделялись своей протяжённостью на большие расстояния и многочисленностью населения. Одной из таких империй является Ахеменидская империя. В данной статье ставится цель всесторонне проанализировать, как формировалась военно-политическая мощь Ахеменидской империи, сущность масштабных реформ, осуществлённых с помощью гвардии «Бессмертных» и мощного военно-морского флота, а также особенности административного аппарата, управлявшего этим сложным механизмом. Ахеменидская государственность, как синтез древневосточной деспотии и культурного синкретизма, и сегодня остаётся актуальным объектом исторических и политических исследований.

**Ключевые слова:** Кир II, Гардаш, Астиаг, Маг, Дарий I, сатрап

**Annotation:** Looking back at the past and the history of the ancient world, it can be noted that the empires, kingdoms, and states of the Ancient East stood out for their vast territorial extent and large populations. One of such empires is the Achaemenid Empire. This article aims to comprehensively analyze how the military and political power of the Achaemenid Empire was formed, the essence of the large-scale reforms carried out with the help of the “Immortals” guard and a powerful naval fleet, as well as the distinctive features of the administrative apparatus that managed this complex system. The Achaemenid statehood, as a synthesis of ancient Eastern despotism and cultural syncretism, remains a relevant subject of historical and political research even today.

**Keywords:** Cyrus, gardash, Astyages, magus, Darius I, satrap

**Kirish.** insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida davlatchilik tizimlarining shakllanishi va ulkan hududlarning yagona markazga bo‘ysundirilishi murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning cho‘qqisi sifatida miloddan avvalgi VI-IV asrlarda qadimgi dunyo siyosiy xaritasida paydo bo‘lgan Ahamoniylar imperiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu imperiya nafaqat o‘zining hududiy ko‘lami - Hind daryosi vodiysidan Egey dengizi qirg‘oqlarigacha, Markaziy Osiyo cho‘llaridan Nil daryosining birinchi ostonalarigacha cho‘zilgan bepayon yerlari bilan, balki insoniyat tarixidagi ilk “super-davlat”, “super-imperiya” andazasini yaratganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Ahamoniylar sulolasi xususan Buyuk Kir II davridan boshlab, o‘ziga xos harbiy-siyosiy g‘oyani ilgari surgan. Bu g‘oyaning asosi - shunchaki hududlarni istilo qilish emas, balki turli

madaniyat, til va dinlarga moslab xalqlarni yagona iqtisodiy-ma'muriy hududda birlashtirishdan iborat bo'lgan. Kir II ning Midiyani bosib olishi bilan boshlangan zafarli yurushlari keyinchalik Kambiz II tomonidan Misrning bo'sundirilishi va Doro I davrida imperiyaning o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqishi bilan davom etadi. Bu davrda harbiy istilolar shunchaki qurol kuchi bilan amalga oshmagan. Balki, puxta o'ylangan rejalar, harakatlar va bosib olingan hududlar bilan hamkorlik qilish strategiyasi asosida olib borilgan.

Biroq, bu qadar ulkan hududni faqatgina harbiy kuch bilan ushlab turish imkonsiz edi. Shu sababli, maqolaning markaziy mavzusi bo'lgan davlat boshqaruvi tizimi, xususan, Doro I tomonidan joriy etilgan satraplik islohoti jahon boshqaruv madaniyatining poydevori bo'lib xizmat qildi

### ASOSIY QISM

Ahamoniylar davlatiga uzoq bosqinchilik urushlardan so'ng Fors davlati paydo bo'lgunga qadar Kichik Osiyo, Elam, Bobil, Suriya va Misr kabi o'zining rivojlangan davlat hokimiyatiga ega bo'lgan hududlar kiradi. Bundan tashqari, forslar ko'chmanchi arab va skif qabilalarini bo'sundirganlar. Ulkan davlat tarkibiga kirgan yuzlab xalqlar, elat va qabilalar turli bosqichdagi ijtimoiy -iqtisodiy tuzumda yashaganlar. Ayrim viloyatlar, hududlarda tovar-pul munosabatlari yuqori darajada rivojlangan edi. Forsning o'zida yollanib ishlovchi ishchilar fors tilida „gardash" yoki elam tilida „kurtash" deb atalgan. Kurtashlarning bir qismi davlat fuqarosi hisoblangan.

Kayxusrav va Kambiz bosib olgan hududlarda hech qanday o'zgarish qilmay, avvalgi ichki boshqaruvni saqlab qolganlar. Qaram xalqlarga bir qadar o'z -o'zini boshqarish huquqini berganlar. Ammo miloddan avvalgi 522-521-yillardagi bosib olingan hududlar va qaram mamlakatlardagi qo'zg'olonlar Ahamoniylar davlati mustahkam emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, Doro I davlat hokimiyatini mustahkamlashga yordam beradigan bir qator islohotlarni o'tkazadi. Uning islohotlari ma'muriy-hududiy, moliya va harbiy jihatlariga yo'naltirilgan edi. Doro I islohotlari eng avvalo bosib olingan hududlar ustidan nazoratni amalga oshirish, davlat boshqaruv tizimini yaratish, shuningdek, soliqlar yig'imini tartibga solish va uning miqdorini oshirishga xizmat qilgan. Islohotlar bir necha yilda amalga oshirilgan. Bu islohotlarni amalga oshirish natijasida Bobil, Misr va boshqa hududlarda yangi ma'muriy tizim vujudga kelgan va Ahamoniylar davlatining oxirgi yillarigacha bosqaruv tizimida biror sezilarli o'zgarish yuz bermagan.

Ahamoniylar davlat hokimiyati tepasida qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatini o'z qo'lida to'plagan mutlaq hukmdor - podsho turgan. Podsho davlat boshqaruvida shakllangan davlat apparatiga tayangan. Cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan podsho shaxsi oliy va muqaddas bo'lib, xudo Ahuramazdaning yerdagi soyasi bo'lgan podshoga yaqinlashadigan har qanday kishi tiz cho'kib, ta'zim bajo keltirishi kerak edi. Faqat 6 urug' oqsoqoli uning huzuriga to'g'ridan - to'g'ri kirishlari mumkin bo'lgan. Arz-shikoyat bilan podsho huzuriga kiradigan qolgan fuqarolar uchun ko'p sonli xizmatchilar, tansoqchilardan o'tish amrimahol bo'lgan. Zardusht kohinlari ya'ni "Maglar" ma'naviy va dunyoviy ishlarda podshoga maslahatchi bo'lgan. Davlat boshqaruvining mafkuraviy sohasini Zardushtiylik e'tiqodi kohinlari boshqarganlar. "Maglar" sud ishlarini ham bajarganlar. Bundan tashqari podshoga minglab kishilar xizmat qilgan. Uning tansoqchilari 2000 fors suvoriysi, 2000 nayzabardor va 10.000 piyodadan iborat ilg'or qism bo'lgan. Podsho harami joriyalari Doro I va uning vorislari davrida 360 taga yetgan. Podsho va uning a'yonlari harbiy yurishlarda o'z xotin, bola-chaqalarini ham olib yurganlar. Aleksandr va uning harbiy qo'shinlari Issa yaqinida bo'lgan jangda g'alaba qozonadi va u Doro III ning tashlab ketgan qarorgohiga talashga kirganda hayratdan yoqa ushlaydi. Chunki bu qarorgohda u fors podshosining xizmatida bo'lgan 300 ayolni, 277 nafar oshpaz, 13 ta sirli ovqat tayyorlovchilarni, 40 ta xushbo'y surgu tayyorlovchi, 70 ombor xizmatchisi va 46 ta supurgi to'quvchilarni uchratadi.

Podsho Doro I amalga oshirgan islohotlar hukmdorning mutlaq hokimiyatini ham kuchaytirgan edi. Shuningdek, saroy qonun - qoidalari, rasm-rusumlari va marosimlari, podsho hokimiyatining ramzlari shakllantirilgan edi.

Fors davlati boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Tashkilotchilik, boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgan yosh zodagonlar podsho saroyida, bir qismi satrapliklarda, satraplar rahbarligida bo'lg'usi lavozimlarga tayyorlangan. Ular harbiy san'atni, dunyoviy-ilohiy bilimlarni hamda boshqaruv san'atini o'zlashtirganlar.

Doro I miloddan avvalgi 515-yil atrofida mamlakatni satrapiya (viloyat, fors tilida "kshatriya") deb atalgan ma'muriy hududlarga bo'ladi. Satrapliklar tarkibiga ichki boshqaruvda muxtor bo'lgan mamlakatlar ham kirgan. Bular markazdan uzoq hududlar bo'lib, ularning ichki ishlariga fors hokimiyati aralashmagan. Ular mahalliy hokimlar yordamida boshqarilgan va forslar ulardan faqat o'lpon olish bilan cheklangan. Arablar, kalxlar, efioplar va saklar o'z hokimlari tomonidan boshqarilgan.

Yangi ma'muriy birliklar boshida satrap (noiblar) turgan. Satrap mansabi Ahamoniylar davlati vujudga kelishi bilan mavjud bo'lgan. Kayxusrav, Kambiz va Doro I podsholigining birinchi yillarida qaram hududlarda rahbarlik vazifalarini imtiyozli etnik guruh - forslar qo'lida to'plashni maqsad qilib qo'yganlar. Endilikda "satrap" lavozimiga qoida sifatida faqat "forslar" tayinlanadigan bo'ldi. Kayxusrav va Kambiz davrida satrap qo'l ostida fuqarolik va harbiy hokimiyat to'plangan. Bu haqda satrap Gobriyning Bobil, Suriya va Yuqori Mesopatamiyadagi bir vaqtning o'zida fuqarolik va harbiy noib vazifasini bajargani to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud. Doro I satrap hokimiyatining kuchayib ketishini oldini olish maqsadida satrap vazifasini harbiy hokimiyatdan ajratib qo'ydi. Endilikda satraplar viloyatlarda faqat fuqaro hokimiyatiga ega noib hisoblanganlar. Satraplar o'z viloyatida ma'muriyat boshlig'i bo'lib, uning vazifalariga o'z viloyatini taraqqiy ettirish, savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish, pul muomalasi, yo'llar, kanallar ustidan nazorat o'rnatish va o'z kumush tangasini zarb ettirish kabilar kirgan. Bundan tashqari soliqlar yig'imini nazorati ham uning qo'l ostida bo'lgan. Satraplikdagi harbiy hokimiyat alohida lavozimli kishi - "harbiy boshliq" qo'lida to'plangan. U satraplikdagi harbiy qismlar va qal'alar, garnizonning boshlig'i sanalgan. Eng ko'p harbiy qismlar Sard, Memfis, Bobil va Ekbatanada joylashtirilgan. Satraplar o'z satrapliklari chegarasida xavfsizlikni ta'minlaganlar va mahalliy amaldorlarning faoliyatini boshqarganlar. Tinchlik vaqtida satraplar qo'l ostida faqat ozgina shaxsiy qo'riqchilar bo'lgan.

Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustidan oliy nazorat "xazorapat" deb atalgan mansabdor qo'lida bo'lgan. U bir vaqtning o'zida "o'n ming o'lmas" podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig'i bo'lgan. Har bir satrap oldida uning nazorati uchun podsho tayinlagan "kotib" turgan. U farmoyish ko'rsatmalarini bevosita podshoning o'zidan olib, ularni satrap va harbiy boshliqqa yetkazib bergan. Shu bilan birga, u satraplikdagi vaziyat to'g'risida podshoga muntazam ma'lumot yuborib turgan. Satraplar ustidan oliy nazoratni, bosh nazoratchi "amalga oshirgan, u podsho nomidan satrapliklarni kutilmaganda taftish qilgan va u "podshoning ko'zi" deb atalgan. Agar satraplikda ishlar yaxshi ketayotgan bo'lsa, satrap rag'batlantirilgan, aksincha ishlar yomon bo'lsa, u jazolangan. Bosh nazoartchidan tashqari yana maxfiy ayg'oqchilar, bular „podshoning quloqlari" deb atalgan. Davlat apparatida forslar eng muhim harbiy va fuqarolik vazifalarini ham egallab olganlar. Shu bilan birga, Ahamoniylar boshqaruv ishlarida boshqa xalqlar vakillaridan ham foydalanganlar.

Ammo Doro I davridan so'ng harbiy va fuqarolik hokimiyatining bo'linishiga qat'iy rioya qilinmagan. Ko'pincha satrap hokimiyatining hajmi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib qolgan.

Doro I ning islohotlari natijasida podsho markaziy devonxonasi bilan birga, katta byurokratik apparat vujudga keladi. Ahamoniylar davlatining markaziy davlat boshqaruvi ma'muriy markaz Suzada bo'lib, podshoning bosh qarorgohi Fors viloyatidagi Persepol shahrida joylashgan. Podsho o'rdasi kuz va qishni Bobilda, yozni Ekbatanada, bahorni Suzada o'tkazgan. Oromiy tili Ahamoniylar davlatining rasmiy tili edi. Barcha rasmiy hujjatlarni mahalliy tillarga

tarjima qilganlar. Rasmiy hujjatlar joylarda mahalliy tillarda ham yozilgan. Ikki yoki undan ko'proq tillarda ish qog'ozlari yuritilgan.

Ahamoniylar davlatining bunday ulkan imperiyaga aylanishda podsholarning boshqaruvchilik iqtidoriga ega ekanliklari va tinimsiz ravishda isyonchilik urushlarini olib borishi muhim omil sanaladi. Imperiyaning harbiy tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular amalga oshirgan yirik bosqinchilik va istilochilik yurishlarini sanab o'tish mumkin. Garchi tarixiy manbalarda kichik to'qnashuvlar juda ko'p bo'lsa-da, imperiya hududini kengaytirgan va tarixini o'zgartirgan 6 ta asosiy yirik harbiy urushlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Mana shunday asosiy harbiy yurushlardan biri Midiyaga qarshi uyushtirilgan edi.

Midiyaga qarshi harbiy yurish Kir II tomonidan miloddan avvalgi 550-yilda amalga oshiriladi. Midiya qo'shinlariga Xarpag ismli qo'mondon boshliq etib tayinlanadi. Afsuski Xarpag xiyonat yo'lini tutib, Kir II tomoniga o'tib ketadi. Midiya podshosi Astiagga sodiq bir guruh askarlar ham tarqalib ketadi. Aslini olib qaraganda Midiya podshosi hisoblangan Astiag Kir II ning bobosi edi. Buning tarixini aytib beradigan bo'lsam, Astiagning o'g'li bo'lmagan. Uning yakkayu-yagona Mandana degan qizi bo'lib, uni bo'lajak munosib kuyovga uzatmoqchi bo'ladi. Astiag qizini o'ziga qaram bo'lgan Kir I ning o'g'li Kambizga turmushga beradi. Astiag bir kuni tush ko'radi va tushida u qizidan tok navdasi chiqib, unga tegishli butun hududni o'rab olganini ko'radi. Kohinlar bu tushning ta'birini shunday deydi: Qizingni o'g'li bo'lib, u nafaqat uning vorisi bo'ladi, balki uning o'rnida saltanatni ham boshqaradi. Mandana o'g'il farzandli bo'ladi. Unga erining otasi sharafiga KIR ismini beradi. Astiag ko'rgan tushi o'ngidan kelishidan xavotirlanib, nabirasini o'ldirishni amaldori Xarpagga buyuradi. Ammo Xarpag gunohkor bo'lishni xoxlamay Kir ni cho'ponga berib yuboradi. Shu tariqa Kir o'lmaydi va cho'pon oilasida katta bo'ladi. Oradan yillar o'tib bu voqeadan Astiag xabar topadi va Kir o'z ota-onasi oldiga, o'z yurtiga keladi. Kir bobosining qilgan ishlaridan xabar topgach bobosidan o'ch olishga ahd qiladi va Midiyaga qarshi urush boshlaydi. U tez orada Ekbatanini istilo qiladi. Miloddan avvalgi 558-yilda o'zini Midiya va Eronning podshosi deb e'lon qiladi. Kir II bobosini o'ldirmaydi, aksincha o'z ajali bilan o'lgunga qadar tutqunlikda ushlab turadi.

Kir II ulkan imperiya tuzish yo'lida sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Bobilga ham harbiy yurushlarni malga oshirishdan toymadi. Dastlab Astiag vafot etishi bilan lidiyalik va midiyaliklar bilan tuzilgan sulh shartnomasi bekor qilinadi. So'ngra "Lidiyaga" qarshi harbiy harakatlar boshlanadi. Lidiyani bo'ysundirish unchalik ham qiyinchilik tug'dirmadi. Ikkala tomon o'rtasida Galis daryosi yaqinida natijasiz janglar bo'lib o'tadi. Natijada Krez Bobildan yordam so'rash maqsadida chekinadi. Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va oxir-oqibat dushman qo'shinini poytaxt Sard yaqinida qurshab oladi. 14 kunlik qamaldan so'ng shaharni egallaydi.

Mashhur tarixchi Ksenafontning ta'kidlashicha Kir II avvalgi hukmdorlar singari o'z saltanatini kuch va zulm vositasi orqali boshqara olgan. Uning davlati ko'p millatli imperiyaga aylanib bordi. Endilikda midiyalik, lidiyaliklar shu jumladan Frigiya va bobosi tomindan bosib olingan Ossuriyaning shimoliy viloyatlari - barchasi Eron tarkibiga kiradi. U Hind daryosigacha bo'lgan yerlarni Ahamoniylar davlatiga bo'ysundiradi. Miloddan avvalgi 540-yilga kelib Kir II qo'shinlarini g'arbiy chegara tomon suradi va u yerda bobilliklar o'rtasida vaqti-vaqti bilan to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Forslarning hujumlari tobora jiddiylashib boradi. Natijada miloddan avvalgi 539-yilga kelib, Kir II Bobil shahrini egallaydi. Bu voqea Ahamoniylar tarixida muhim burilish bo'lgan. Bobilni egallash orqali ular Mesopatamiya hududini o'z nazoratiga oladi. Qizig'i shundaki, Kir II Bobil aholisiga nisbatan yumshoq siyosat yuritgan va bu uning hukmronligini mustahkamlashga yordam bergan. Biroq Ahamoniylarning barcha yurishlari ham muvaffaqiyatli bo'lmagan. Miloddan avvalgi 530-yilda Kir II Markaziy Osiyoda yashovchi massaget qabilalariga qarshi yurish boshlaydi. O'g'li Kambizni esa Bobilda hokimiyat tepasida qoldirib, o'zi keksayib qolgan bo'lishiga qaramay yurishga jo'naydi. Imperiya chegarasi Araks daryosidan o'tishi uchun ko'priq qurildi va Kir dushman mamlakatiga bostirib kirdi. Avval unga biroz omad kulib boqadi. Keyin malika To'maris tomonidan mamlakat ichkarisiga olib kirilgan Kir jangda mag'lubiyatga uchradi va o'zi yaralandi. 3 kundan so'ng sak va massagetlarning hech

kinga mashhur bo'lgan malikasi o'ljasiga aylangan, qachonlardir qudratli bo'lgan istilochi vafot etdi. Kambiz otasining jasadini forslarning lagerida tayyorlab qo'yilgan maqbaraga joylashtirib, uning sharofatiga munosib dafn marosimi o'tkazdi.

Kir II vafotidan so'ng taxtga Kambiz II chiqadi va u istilochilik siyosatini davom ettiradi. Uning eng muhim yurushlaridan biri miloddan avvalgi 525-yilda Misrga qarshi olib borilgan harbiy yurish hisoblanadi. Misr fir'avni Psammetix III ustidan qozonilgan g'alaba natijasida bu hudud Ahamoniylar imperiyasining satrapligiga aylantiriladi. Shu tariqa imperiya Afrika tomon ham kengayadi va Nil vodiysi kabi muhim iqtisodiy hududlar nazorat ostiga olinadi. Ahamoniylar imperiyasining eng yuqori taraqqiyot davri Doru I hukmronligi bilan bog'liq. U nafaqat davlatni mustahkamladi, balki uni yanada kengaytirdi. Doru I Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlarini egallab, u yerda satraplik tizimini joriy etadi. Bundan tashqari, u yerda satraplik tizimini joriy etadi. Bundan tashqari, u Yevropa tomon yurishlar uyushtirib, Yunon shahar -davlatini bo'ysundirishga harakat qiladi. Bu yurish tarixda uzoq davom etgan uruahlardan biri bo'lib miloddan avvalgi 500-449 yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Yunon -fors urushlariga oid asosiy manba Geradotning "Tarix" asari hisoblanadi. Ayrim tadixchilar bu urushga o'z munosabatlarini bildirib, ayrim xususiyatlari haqida fikr bildirganlar. Esxil o'zining „Forslar“ tragediyasida shohid va bevosita ishtirokchi sifatida Salamin oroli yonida yunonlarning forslar bilan qilgan dengiz jangini yorqin obrazlarda tasvirlagan. Keyinroq yunon-ford urushlari tarixi Diodor asarlarida ham yoritilgan. Bu urushning shuncha tarixchi olimlar asarlarida o'rin olishi „Yunon-fors“ urushlarining juda ham ayanhli, insoniyat tarixida muhim rol o'ynaganidan dalolat beradi. Umuman olganda Ahamoniylarning ushbu istilochilik yurushlari natijasida imperiya Osiyo, Afrika va qisman Yevropa hududlarini o'z ichiga olgan ulkan davlatga aylandi. Bu yurushlar orqali savdo yo'llari kengaydi, turli xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar rivojlandi va markazlashgan boshqaruv tizimi rivojlandi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Ahamoniylar davlati qadimgi dunyo tarixida ilk yirik markazlashgan imperiyalardan biri sifatida nafaqat hududiy kengayish, balki mukammal davlat boshqaruvi tizimini yaratganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning shakllanishi va taraqqiyoti bevosita kuchli davlat boshqaruvi tizimi hamda muvaffaqiyatli istilochilik yurushlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, Kir II tomonidan asos solingan siyosiy tizim keyingi hukmdorlar tomonidan yanada takomillashtirilib, ulkan hududlarni samarali boshqarish imkonini bergan. Ahamoniylar tomonidan joriy etilgan satraplik tizimini, soliqlarni tartibga solish, yo'l va aloqa tizimining rivojlantirilishi davlatning barqarorligini ta'minlagan muhim omillardan bo'ldi. Istilochilik yurushlari esa davlat hududini kengaytirish, iqtisodiy resurslarni qo'lga kiritish va strategik hududlar ustidan nazorat o'rnatishga xizmat qilgan. Biroq, bu yurishlar doimo ham muvaffaqiyatli kechmagan. Ayrim hududlarda kuchli qarshiliklar yuzaga kelgan va bu imperiyaning zaif tomonlarini ham namoyon etgan. Shunga qaramay, Ahamoniylar davlati uzoq vaqt davomida turli xalqlar va hududlarni yagona siyosiy tizim ostida birlashtira olgan.

Umuman olganda, Ahamoniylarning davlat boshqaruvi tajribasi va istilochilik siyosati keyingi davr imperiyalari uchun muhim tarixiy tajriba maktabi bo'lib xizmat qilgan hamda jahon sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli hissa qo'shgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. R.Rajabov „Jahon tarixi“ (Qadimgi Sharq), Toshkent –"Yangi asr avlodi" -2018 ( 448 bet)
2. Альберт Олмстед "Форс империяси тарихи "
3. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov "Jahon Tarixi" (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi) o'quv qo'llanma. Toshkent-"Innovatsiya Ziy" - 2020
4. R.Rajabov „Qadimgi dunyo tarixi".Toshkent-" Fan va texnologiya" – 2009,